



# Ish haqi miqdorini va ish stajini tasdiqlash to'g'risidagi arxiv ma'lumotnomasini olish tartibi haqiqda bilasizmi



June 19, 2023



Mazkur xizmat Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-avgustdagi 495-son qaroriga asosan amalga oshirib borilishi belgilangan bo'lib Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanish uchun Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat etadi yoki davlat xizmatlaridan elektron shaklda foydalanish uchun YIDXPdan ro'yxatdan o'tadi.

1.Ariza beruvchi o'zi kelib murojaat etgan taqdirda, Davlat xizmatlari markazi xodimi ariza beruvchi nomidan, YIDXP orqali murojaat etgan taqdirda esa, mustaqil ravishda ushbu Reglamentga 2-ilovaga muvofiq shakldagi so'rovnomaning elektron tarzda to'ldiriladi. Ariza beruvchi ishonchnoma asosida harakat qilayotganda, so'rovnomaga notarial tasdiqlangan ishonchnoma nusxasi ilova qilinadi.

2.Davlat xizmatlari markazlari tomonidan so'rovnoma to'ldirilgandan so'ng ariza beruvchi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirib, so'rovnomaning imzolarni identifikatsiya qilishning tegishli vositalari (ERI, daktiloskopiya, elektron imzo, Mobil-ID va boshqalar) bilan tasdiqlaydi.

3. Ariza beruvchilar YIDXP orqali murojaat etgan taqdirda, so'rovnomaning ERI bilan tasdiqlash talab etilmaydi.

4.Davlat xizmati ko'rsatilganligi uchun 3000 so'mda davlat boji undiriladi

5.YIDXP orqali murojat qilganda to'lov undurilmaydi

6.Ariza beruvchi tomonidan so'rovnomada noto'g'ri ma'lumotlarning ko'rsatilishi yoki uni tasdiqlash rad etilishi davlat xizmati ko'rsatishni rad etish uchun asos hisoblanadi

7. Ariza beruvchi tomonidan so'rovnomada noto'g'ri ma'lumotlarning ko'rsatilishi yoki uni tasdiqlash rad etilishi davlat xizmati ko'rsatishni rad etish uchun asos hisoblanadi.
8. Davlat xizmati ko'rsatishni boshqa asoslar bo'yicha rad etish taqiqlanadi.
9. Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanishdan uni ko'rsatishning har qanday bosqichida bosh tortish huquqiga ega. Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanishdan bosh tortganda, uning so'rovnomasi ko'rib chiqilmasdan qoldiriladi.
10. Ariza beruvchi Davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat etgan taqdirda, uning so'rovnomasi Davlat xizmatlari markazi xodimi tomonidan to'ldirilib, ariza beruvchi tomonidan tasdiqlangandan so'ng 10 daqiqa mobaynida, YIDXP orqali murojaat etganda avtomatik tarzda tegishli davlat arxiviga elektron shaklda yuboriladi.
11. Davlat arxivi so'rovnoma kelib tushgan vaqtdan boshlab ish stajini tasdiqlashga oid ma'lumotnomalar uchun — 5 ish kunidan, ish haqini tasdiqlashga oid ma'lumotnomalar uchun — 20 ish kunidan oshmagan muddatda tegishli QR-kodli (matrik shtrixli kod) ma'lumotnomani shakllantiradi hamda (o'zi kelib murojaat etgan taqdirda) tegishli Davlat xizmatlari markaziga yoki (elektron shaklda murojaat etgan taqdirda) YIDXP orqali elektron shaklda yuboriladi.
12. Davlat xizmatlari markazi ma'lumotnoma kelib tushgandan so'ng 10 daqiqa mobaynida uni ariza beruvchining elektron manziliga yuboradi va uni bu haqda axborot-kommunikatsiya tizimi orqali xabardor qiladi.
13. Ariza beruvchi Davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat qilgan taqdirda uning so'roviga ko'ra Davlat xizmatlari markazi unga ma'lumotnomani elektron yoki qog'oz shaklda taqdim etishi mumkin.

**OLTINSOY TUMAN ADLIYA BO'LIMI DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI**

**BO'LIM BOSHIG'I J.ISHNIYAZOV**